To‘xtasinov Mira’zam Abdujabbor o‘g‘li
Namangan Davlat Universiteti
Ijtimoiy fanlar fakulteti Tarix yo‘nalishi talabasi
E-mail: mirazamtohktasinov@gmail.com

SOMONXUDOTLAR VA ULARNING TARIXI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.12600156

Annotatsiya: Ushbu maqolada Somoniylar sulolasining ajdodi hisoblangan Somonxudotlar ularning tarixi va Somonxudotning kelib chiqishi haqidagi ma’lumotlar keltirib o‘tilgan.

Kalit so’zlar: Bahrom Gur, Bahrom Chubin, Xusrav I Anushervon, Barmuda, Somonxudot, Mansur ibn Nuh, El-tegin, Navbahor ibodatxonasi

Somoniylar sulolasining kelib chiqishi haqida tarixchi olimlarning so‘nggi yillarda olib borilgan ilmiy izlanishlari va tarixiy manbalarning numizmatik manbalar bilan solishtirib o’rganish hamda ularni umumiylashtirish natijasida Somoniylar sulolasining kelib chiqishi haqida aniq ma’lumotlar yuzaga kela boshladi. Somoniylar sulolasining bobokaloni ya’ni sulola asoschisi Somon-xudot siyosiy maydonda VIII asrning birinchi choragida paydo bo‘ldi. Asad ibn Abdulloh al-Qushayriy (735-yil) Xuroson hukmdori etib tayinlangach, Xurosonga keldi va Xurosonni umrini oxirigacha (738-yil) boshqaradi. Ma’lumotlarga qaraganda Asad ibn Abdulloh yaxshi ishlarni qiluvchi va bahodir kishi bo‘lib, ko‘ngli arablarni ham, yerli xalqlarni ham ulug‘ oilalariga g‘amxo‘rlik qilishga va aslzodalar bilan do‘st tutinishga moyil bo‘lgan. Manbalarda keltirilishicha Somonxudot Balxdan qochib, Marvga Asad ibn Abdullohni oldiga keladi. Balxda Somonxudotning dushmanlari isyon ko‘tarib hokimyatni o‘z qo‘liga oladi. Somonxudot xalifa Asad ibn Abdullohdan yordam so‘raydi. Yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek xalifa Asad ibn Abdulloh mard, jasur va rahmdil bo’lib, boshqalarga ayniqsa qiyin ahvolda qolgan insonlarga yordam berishga intilgan. Somonxudotning iltimosini qabul qilib unga yordam beradi. Somonxudotning barcha dushmanlari mag‘lub etib, uni hokimyatini qaytarib olib beradi. Buning evaziga Somonxudot katta mamnuniyat bilan Asad ibn Abdullohga minnatdorchilik bildiradi va unga bo‘lgan hurmatini cheksizligini ko‘rsatish maqsadida islom dini qabul qiladi. Ba’zi manbalarda keltirilishicha Somonxudot o‘z farzandiga Asad deb ism qo‘yganligi qayd etib o‘tilgan. Bularning barchasi Asad ibn Abdullohga bo‘lgan cheksiz hurmat va minatdorchilik edi. Shu tariqa Somonxudot o‘z hokimyatini mustahkamlab oladi.

Somonxudot nomiga to’xtaladigan bo‘lsak, uning bunday nom bilan atalishiga asosiy sabablardan biri shuki, u bir qishloq barpo etib unga Somon deb nom berdi. Somon qishlog‘i joylashgan hudud haqida ikki xil faraz mavjud bo‘lib, ba’zi manbalarda Samarqand atrofidagi hududlar nazarda tutilgan bo‘lsa ba’zi manbalarda xususan Narshaxiyning “Buxoro tarixi” asarida Balx hududida joylashganligi qayd etib o’tilgan. Balx hududida joylashganligi haqidagi farazlar aniqroq bo‘lib, o‘sha vaqtlarda Somonxudotning hokimyati Balxda tuzilgan bo‘lib, keyinchalik bu davlat Somonxudotning vorislari davrida bo‘lajak Somoniylar davlati uchun zamin bo’lgan. Shu tariqa Somonxudotning nomi o‘zi barpo etgan qishloq nomiga berilgan. Buxoro hukmdorlari Buxorxudot deb atalganidek, uni ham shu qishloq nomi bilan Somonxudot deb atadilar. Shu tariqa Somonxudot o‘z davrining eng buyuk va mashhur hukmdorlaridan biriga aylanadi.

Manbalarda Somonxudotning ikkita o‘g‘li haqida ma’lumotlar berilgan. Uning katta o‘g‘li Asad otasi bilan Xurosondagi Abu Muslim qo‘zg‘olonida ishtirok etadi. Keyinchalik Asad xalifa al-Mamunning Marvdagi saroyida xizmat qiladi. Asad bilan birga al-Ma’mun saroyida sug‘d podsholarining av-

lodlari ixshid as-Sug‘diy va Shabib ibn Buxorxudot al-Balxiy ham xizmat qilishgan. Somonxudotning yana bir o‘g‘li Isxoq ibn Somon bo’lib, u xalifa al-Ma’munning harbiy qo‘mondoni Zaxayr ibn al-Musayab az-Zabi qo‘l ostida xizmat qilgan. Xamza al-Xorijiy (795-811-yillarda) boshchiligida Seistonda ko’tarilgan qo‘zg‘olonni bostirishda halok bo‘lgan.

Xulosa o‘rnida shuni alohida ta’kidlab o‘tish joizki, Somoniylar sulolasining ajdodi hisoblangan Somonxudotning kelib chiqishi turkiy sarkardalardan bo‘lganligi tarixiy va yozma manbalarda keltirilgan ma’lumotlar orqali o‘z tasdig‘ini topdi. Bundan ko‘rish mumkinki somonxudotlar Somoniylar sulolasining ilk ajdodi ekanligi va ularning tarixiy vaziyat tufayli keyinchalik ushbu sulolaga asos solganligi, Somoniylar sulolasining kelib chiqish tarixi uzoq o‘tmish bilan bog‘liqligidan darak beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Наршахий А. Бухоро Тарихи. – Т:. Фан. 1996. Б. 120.
2. Неьматов Н. Давлати Сомониён. – Ирфон. 1999. Б. 328.
3. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фит тарих. – Т:. Цюрих. 2005. Б. 604.
4. Shamsutdinov R. va Karimov Sh. Vatan Tarixi. –T.: Sharq. 2010. B. 511
5. Homidiy H. Daholar davrasi. –T:. O‘qituvchi. 2011. B. 352.
6. Эшов Б.ва Одилов А. Узбекистон Тарихи. – Тошкент. 2014. Б. 489.
7. Камолиддин Ш. Исмоил ибн Ахмад ас-Сомоний. Scholars press. 2017. Б. 93.
8. https://buxoroisharif.uz/5115/?amp=1
9. https://shosh.uz/uz/mutafakkirlar-abu-abdulloh-xorazmiy/
10. http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/320